

“MEN O'QIGAN KITOB”



“MEN O'QIGAN KITOB”

Respublikamizda yoshlarni kitob mutolaasiga keng jalb qilish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish maqsadida davlatimiz siyosati darajasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Zotan, kitob bilim manbai hisoblanadi va u insonni kamolot sari yetaklaydi. Ayniqsa, kitobsevar yoshlarni izlash, ularni tanlab olish va munosib rag'batlantirish ularda kitobga bo'lgan shavq va mehr-muhabbatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Viloyat mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan “Men o'qigan kitob” onlayn ko'rik-tanlovida ishtirok etgan 18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Nargiza Yigitaliyeva faxrli o'rinni egallagan faol So'xlik talabalardan. Kitob, badiiy adabiyotga bo'lgan shavq Nargizaning qalbida yoshligidan paydo bo'lgan.

Nargiza Yigitaliyevaga tuman mahalla va oilani qo'llab quvvatlash bo'limi va ma'naviyat targ'ibot markazining faxriy yorlig'i va esdalik sovg'alari hamda badiiy adabiyotlar taqdim etildi. Shuningdek, Nargizaga onlayn ko'rik-tanlovda tuman sha'nini munosib himoya qilganligi uchun “Mahalla” xayriya jamoat fondi tomonidan 500 000 so'm miqdorida pul mablag'i topshirildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-11-30 17:36:37